



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 2 - mart

VI-59-47-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli Farmoni ijrosi va tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘ining hisoboti to‘g‘risida**

Hozirgi kunda Angor tumanida har-xil sabablarga ko‘ra, chet elga uzoq muddatga ketgan fuqarolar soni 755 nafarni tashkil etib, shundan 352 nafari ayollar, 403 nafari erkaklarni tashkil qiladi.

Joriy yilning yanvar oyi davomida yashash manziliga qaytgan fuqarolar soni 232 nafarni tashkil etib, shundan erkaklar soni 150 nafarni, ayollar soni 82 nafarni tashkil qiladi.

Uzoq muddatdan qaytib kelgan 82 nafar xotin-qizlar to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning 56 nafarining bandligi ta‘minlangan.

Uzoq muddatga yashash joyidan chiqib ketgan shaxslar, shu jumladan ayollarning oilalarini ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahalla faollari hamda hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda chet elga chiqib ketgan shaxslarning uyida qolgan oila a‘zolari, shu jumladan farzandlarining turmush tarzini o‘rganish maqsadida uyma-uy yurish orqali yashash sharoitlari o‘rganilib, ota-onasiz qolgan 15 nafar voyaga yetmagan bolalar ota-onasini o‘rnini bosuvchi shaxslarga, vasiylik va homiylik organlari orqali ular vasiylikka topshirildi.

Tumanda “Odam savdosi”, “Siz huquqlaringizni bilasizmi” va h.k. mavzularda o‘tkazilgan targ‘ibot-tashviqot tadbirlari 68 tani tashkil etib, shundan, mahalla fuqarolar yig‘inlarida 36 ta, korxonalar va tashkilotlarda 18 ta va ta‘lim muassasalarida 14 ta o‘tkazilgan.

Xotin-qizlar o‘rtasida salbiy holatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida ommaviy axborot vositalarida 6 marotaba chiqishlar tashkil etildi.

Mahallalarda xotin-qizlar faoli xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar bilan birgalikda uyma-uy yurib, uzoq muddatda yurgan va qaytib kelgan xotin-qizlarning muammolarini o'rganish asosida ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ishsiz, yordamga muhtoj, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, jinoyat sodir etishga moyil va ichki ishlar, sog'likni saqlash hamda boshqa idoralarning hisobida turgan jami 141 nafar xotin-qizlarning manzilli ro'yxati shakllantirilib, ularning har biriga murabbiylar birlashtirilgan.

Jumladan, bu toifadagi xotin-qizlarning 46 nafarini ishga joylashishida (ilgari sudlangani 4 nafar), 12 nafari moddiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'maklashishda (ilgari sudlangani 4 nafar), 5 nafarini sog'ligini tiklashda, 3 nafarini shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini qayta tiklab berilishida, 15 nafarini tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda ko'maklashildi.

Angor tumani oila va xotin-qizlar bo'limi, tuman prokuraturasi va ichki ishlar bo'limi bilan birgalikda joylarda xotin-qizlarga berilgan himoya orderlarining O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarni samaradorligini oshirish maqsadida mahalladagi xotin-qizlar faollari o'rtasida 12 ta seminar-treninglar va "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" mavzusida 25 tadbirlar o'tkazilgan.

Tumanda ijtimoiy moslashuv maslahat xonalarida faoliyat olib boradigan Angor tuman ichki ishlar bo'limi, tibbiyot birlashmasi adliya bo'limi, bandlikka ko'maklashish markazi va boshqa mas'ul tashkilotlarning xodimlari ish grafigi asosida zo'ravonlikdan jabrlangan 13 nafar xotin-qizlarga 5 marotaba tibbiy yordam, 4 marotaba psixologik, 4 marotaba huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatilgan, ularning muammolarini hal qilish bo'yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida tuman hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Sh.Rajabovning xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida muhokama etilganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan tuman hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Sh.Rajabovning xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha

doimiy komissiyasiga bergan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

## **2. Tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i (Sh.Rajabova)ga:**

- xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish;

- oila va xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oila va xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish;

- xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

- xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xotin-qizlar yo'nalishidagi nodavlat-notijorat tashkilotlar faoliyatiga yordam ko'rsatish;

- xotin-qizlarni oila, mahalla va mehnat jamoalarida ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma'naviy-axloqiy muhitini va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga ajratilayotgan mablag'larni undan qanday foydalanayotganligi bo'yicha doimiy ravishda monitoring qilib borish;

- xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollar bilan yakka tartibda hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish vazifalari topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo'ziyeva) tuman hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i (Sh.Rajabova) bilan birgalikda tumandagi mahalla xotin-qizlar faollari faoliyatini monitoring qilib, navbatdagi sessiya yig'ilishida eng namunali hamda faoliyatida kamchiliklarga yo'l qo'yib kelayotgan mahalladagi xotin-qizlar faolining hisobotlarini eshitish bo'yicha hisobot kiritilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **har chorakda** tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) hamda tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Rajabova)lar zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov